



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида**

**тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova</b> Boshqaruv samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslari	150
<b>Askar Axrorovich Siddikov, Islomjon Umrzoq o‘g‘li Yovqochov</b> Yashil mehmonxona va restoranlar: ekologik boshqaruv va barqarorlik	154
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Шохида Ильясовна Артикова, Дилноза Наврузовна Султонова</b> Реальные инвестиции как фактор повышения развития экономики страны	157
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Xurshida Abdumalikovna Karjavova</b> Sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	161
<b>Alisher Komilovich Baxadirov</b> O‘zbekistonda lizing oluvchilarni ijara muomalalari hisobining amaldagi holatini barqarorlashtirish yo‘llari	167
<b>Faridun Mustafoyevich Tursunov</b> Tijorat banklarida innovatsion masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning ahamiyatli jihatlari	172
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Мамаюнус Каршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдиназаровна Бабаназарова</b> Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фанининг вазифаларига оид фикрлар	177
<b>Tolmasjon Namoz o‘g‘li Qurbonov</b> “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligini baholash tahlili	182
<b>Otabek Olimjonovich Sobirov</b> Boshqaruv hisobida sifat nazoratini tashkil etish va takomillashtirish	190
<b>Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова</b> Корхоналарда даромад ва харажатлар таснифини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш	192
<b>Sirojiddin Haydarovich Shermamatov</b> Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etishning muammo va istiqbollari	200
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Азимжон Фаррухович Мустафоев</b> Нодавлат таълим ташкилотларида моддий харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	205
<b>To‘lqin Mardiyev, Azizbek Gafurov</b> Qardosh bo‘lmagan tillarda iqtisodiy idioma va frazeologiyalarning leksik-semantik xususiyatlari	212
<b>Хилола Нематовна Очилова</b> Камбағалликни қисқартиришда олий таълим муассасаларининг ўрни ва аҳамияти	215
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Каршибаевич Пардаев</b> 1. Энг зарур тиббий ўғитлар. 2. Онкологлар энди мени кечиришмайди. бутун дунё топмаган дардимга, биргина мева даво бўлди!!	219

Шулар орқали ташкилот ва корхоналар инсон ресурсларини оқилона таҳлил қилиб, узоқ вақтлар самарали ва муваффақиятли фаолият олиб бориш билан бирга ходимларнинг рақобатбордошлигини оширади.

<p><b>М.Пардаев, О.Пардаева, С.Бабаназарова</b></p> <p><b>Размышления о задачах предмета «Аналитика (анализ) человеческих ресурсов»</b></p>	<p><b>M.Pardaev, O. Pardaeva, S.Babanazarova</b></p> <p><b>Reflections on the objectives of the subject “Human Resources Analytics”</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В статье рассматриваются важные задачи дисциплины «Аналитика человеческих ресурсов». В этой связи в качестве объектов АЧР рассматривались и задачи, возложенные на кадры высшей школы на основании Положения о порядке формирования государственного заказа. Также представлены восемь основных задач аналитики (анализа) человеческих ресурсов в условиях инновационной экономики и пояснено их содержание.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> человеческие ресурсы, кадровая аналитика, высокообразованные кадры, платформа, факторы, влияние факторов, расчет факторов.</p>	<p><b>Abstract.</b> The article examines the important tasks of the discipline "Human Resources Analytics". In this regard, the tasks assigned to the personnel of higher education on the basis of the Regulation on the procedure for forming a state order were considered as objects of HRA. Eight main tasks of human resources analytics (analysis) in the context of an innovative economy are also presented and their content is explained.</p> <p><b>Keywords:</b> human resources, personnel analytics, highly educated personnel, platform, factors, influence of factors, calculation of factors.</p>

**Tolmasjon Namoz o‘g‘li Qurbonov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

### “YASHIL IQTISODIYOT”NING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH TAHLILI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “yashil” iqtisodiyotga o‘tish ahamiyatini yoritib berish bilan birga “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali baholash usullari ko‘rib chiqilgan hamda ushbu mezon bo‘yicha O‘zbekiston “Yashil” iqtisodiyotining barqaror rivojlanish darajasi va kelgusidagi imkoniyatlari tahlil qiluvchi ko‘rsatmalar berilgan. Natijalar asosida esa mamlakatda “Yashil” iqtisodiyotining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Yashil” iqtisodiyot, atrof-muhit, iqtisodiy samaradorlik, baholash, energiya, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, sanoat tarmoqlari, transport, chiqindilarni qayta ishlash, “Yashil” innovatsiya, “Yashil” texnologiya.

**Kirish.** Global miqyosda atrof-muhit muammolarning keskinlashuvi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi sababli “Yashil iqtisodiyot” kontsepsiyasiga o‘tish zarurati tobora dolzarblashib bormoqda. Bir tomondan atrof-muhitga chiqariladigan zararli gazlarning hajmi ortishi natijasida Ozon qatlaminig yemirilshi hamda muzliklarining erishi global iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘layotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan dunyo aholisining soni ortishi, resurslar taqchilligi kuchaydi. Shu sababli ham “Yashil” iqtisodiyot” inson farovonligini oshirish va tabiat o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlar barqarorligini ta‘minlash va iqtisodiy samaradorlikni birlashtirgan yangi rivojlanish modeli sifatida ko‘riladi. Uning iqtisodiy samaradorligi esa mavjud resurslardan maksimal foyda olish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u resurslar isrofchiligini kamaytirish, adolatli taqsimlash, xarajatlarni optimallashtirish va ishlab chiqarishni natijador qilishga qaratilgan. Xususan, O‘zbekistonda insoniyat faoliyatini va uning

tabiiy resurslarga ta'sirini o'rganish, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, tuproq erroziyasi kabi muammolarga barham berish “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”[1]gi Qarorida belgilab berilganlardan kelib chiqib, mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot”ning ahamiyati yuqori ekanligi, uni tadqiq etishimiz, davlat dasturlarini ro'yobga chiqarishimizda izlanishlar olib borishimiz lozimligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida “yashil” iqtisodiyot hozirgi vaqtda iqtisodiyotning bosh bo'gini ekanligini hamda bugungi davrning dolzarb mavzularidan biri ekanligini, “yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligi orqali baholash muhim ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu mavzu yuzasidan ko'plab xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlil qilingan. Xususan, V.Natalia “A Study on Green Economy Indicators and Modeling: Russian Context”[3] nomli maqolasida “Yashil iqtisodiyot”ni baholash mezonlarini yoritib bergan. Olim “yashil iqtisodiyot”ni iqtisodiy samaradorligini baholashda 4 ta ko'rsatkichdan foydalangan. Bular quyidagilar iborat: **Energiya:** muqobil energiya zaryadi; muqobil energiya o'zgarish tezligi; **Sanoat tarmoqlari:** chiqindilarini chiqarish ulushi; chiqindilarini chiqarish ulushining o'zgarishi; **Transport:** aloqa vositalari chiqindilarining ulushi; aloqa vositalari chiqindilari ulushining o'zgarishi; **Chiqindilarni qayta ishlash:** chiqindilarni qayta ishlash ulushi; chiqindilarni qayta ishlash ulushining o'zgarish darajasi;

Bizningcha, “Yashil iqtisodiyot”ni iqtisodiy samaradorligini baholashda ushbu ko'rsatkichlarining o'zi etarli emas. Negaki, olim baholashda uni moliyalashtirish, kiritilgan investitsiyalar hajmi hamda “Yashil” texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasini e'tibordan chetda qoldirgan. Chunki ushbu ko'rsatkichlar ham “Yashil iqtisodiyot”ni iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Ch.Yungkun, Ch.Chia-Yon va H.Tsuifang kabi olimlarning “Exploration of sustainable development by applying green economy indicators”[4] nomli maqolasida Global “Yashil” iqtisodiyot bilan bog'liq statistik ma'lumotlarga ko'ra “Yashil iqtisodiyot” ko'rsatkichlari odatda to'rt toifaga guruhlash orqali baholash mumkin. Olim “...to'rtinchi toifada iqtisodiy omillar inobatga olinib, ular pul o'lchovi ko'rsatkich tizimiga asoslanadi, masalan: AQSh, "Integratsiyalashgan ekologik va iqtisodiy hisob tizimi (SEEA)" milliy daromad ko'rsatkichiga moslashtirilgan ekologik omillarning to'plami, Jahon bankining haqiqiy jamg'arma indeksini baholashi.”[4], deb e'tirof etgan. Olim Tayvan davlatining 38 ta “Yashil” iqtisodiyot ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlaridan foydalanib, ekonometrik model asosida “Yashil iqtisodiyot”ning barqaror rivojlanishni tahlil qilgan. Energiya tahlili modeli formulasi bo'yicha konvertatsiya va tahlil jarayonlarini amalga oshiradi:

$$EV = E \times ET$$

hamda;

$$MV = \frac{EV}{EM}$$

Bu erda:

EV- quyosh energiyasi;

E- jami olingan energiya (Joul);

ET - energiya o'zgarishi (koeffitsiyent);

MV – quyosh energiyasidan foydalanishning samaradorlik qiymati;

EM - energiya/valyuta nisbati;

Bizningcha, ushbu formula bir birlik valyuta qiymatiga qancha miqdorda energiya sotib olish mumkinligini anglatadi. Lekin ushbu formula energiyaning iqtisodiy samaradorligini aniq ochib bera olmaydi. Biz ushbu formulaga o'zgartirish kiritib energiyaning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatib bera olishi mumkin bo'lgan formula yaratdik.

P.Chiang, X.Ma, L.Ven va Ch.Lin “Economic and Environmental Assessment in Green Economy”[5] nomli maqolasida “Yashil” iqtisodiyot tamoyillari, muammolari va strategiyalari ikki o'lchov o'rtasidagi o'zaro ta'sirdan tortib atrof-muhit, iqtisodiyot va jamiyat o'rtasidagi

umumiy ta'sirlargacha bo'lgan munosabatlarini o'rgangan. Olimlar "...“Yashil” iqtisodiyot baholash uchun xarajatlar va foydalarni hisobga olishni talab qiladi, shuning uchun Markaziy bank “Yashil” iqtisodiyot uchun qaror qabul qilish vositasi sifatida ishlatilgan. “Yashil” iqtisodiyot strategiyalarining xarajatlari va foydalarini baholash uchun CBA<sup>1</sup> o'tkazilganda, xarajatlar va foydani hisoblash vaqti va hajmini hisobga olish kerak, ijtimoiy va ekologik qadriyatlar muqobil va faraziy bozor narxlarini orqali monetizatsiya qilinishi kerak.” [5] deb e'tirof etishgan. Olimlar “Yashil” iqtisodiyotni iqtisodiy samaradorligini umumiy holda baholashga urinishgan. Shu bilan birga olimlar ijtimoiy va ekologik samaradorlikni hisoblashda muqobil va faraziy bozor narxlariga alohida e'tibor berishgan.

Bizningcha ham shunday, ya'ni ma'lum muddat oralig'ida “Yashil” iqtisodiyotning umumiy samaradorligini ( $E_{umumiy}$ ) topish uchun sohada qilingan jami sarf-xarajatlar ( $C_{jami}$ ) va yalpi daromadni ( $R_{yalpi}$ ) hisoblash orqali amalga oshirish mumkin. Ya'ni:

$$E_{umumiy} = \frac{R_{yalpi}}{C_{jami}}$$

Formula “yashil” iqtisodiyot uchun bir birlik sarf-xarajat qilinganda qancha miqdorda foyda olib kelishini anglatadi.

M.Albert, B.Marta, G.Ian va O.Brunolarning “Articulating natural resources and sustainable development goals through green economy indicators: A systematic analysis”[6] nomli maqolasida “...tabiiy resurslar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim manba hisoblanadi. Biroq resurslardan beqaror foydalanish atrof-muhitning yomonlashishiga va resurslarning kamayishiga olib keldi. Insoniyat farovonligi va atrof-muhitga xavf tug'dirdi. 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi va uning 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari ushbu muammolarni hal qilish bo'yicha harakatlar rejasini ifodalaydi. “Yashil” iqtisodiyot kontseptsiyasi turli institutlar tomonidan resurslarni barqaror boshqarish sari harakatlanish vositasidir.”[6], kabi fikrlarni bildirib, olimlar “Yashil” iqtisodiyot yoki “Yashil” o'sishga qaratilgan 12 ta alohida tizimdan olingan “Yashil” iqtisodiyot ko'rsatkichlarini tizimli tahlil qilish bilan birga barqaror rivojlanish maqsadlari va tabiiy resurslar o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslagan.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot sharoitiga o'tish zaruriyati tug'ilganidan buyon olimlar tomonidan ushbu mavzu yuzasidan ko'plab tadqiqot va ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, professor A.V.Vaxabovning “Yashil iqtisodiyot” nomli darsligida “Yashil iqtisodiyot”ning ayrim masalalarini ochishga uringan. Olim uning mexanizmini, rivojlantirish yo'nalishlarini, xorij tajribasini mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslashga uringan. Shu bilan birga olim darslikda “Yashil iqtisodiyot”ni baholashda ko'plab xorijiy amaliyotlarni taqqoslama tahlil qilgan hamda “...“yashil iqtisodiyot”ni baholash tizimini shakllantirishga oid turlicha yondashuvlar mavjud. Ulardan biri iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlar qiymatini kompleks, ya'ni pulda baholashdir”[7] deb tushuntirgan. Shu orqali olim “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligini quyidagi omillar orqali baholashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bularga:

- yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi va uning aholi o'rtasida nisbatan teng taqsimlanishi;
- ekotizim xizmatlarini ko'rsatish hajmining oshishi yoki ularning kamayishining oldini olish;
- iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, ya'ni iqtisodiy risklarni boshqarishning takomillashuvi;
- “Yashil” texnologiyalar, innovatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanish, ya'ni bozorga bo'lgan ishonchning ortishi;[7]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolaning tadqiqot jarayonida “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va “Yashil” iqtisodiyot ko'rsatkichlarining samaradorligini oshirish bo'yicha

<sup>1</sup> CBA – Cost-Benefit Analysis (Xarajat-foyda tahlili) degan ma'noni anglatadi. Bu usul investitsiya yoki loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun qo'llaniladi. CBA jarayonida barcha kutilayotgan xarajatlar va foydalar pul ekvivalentida ifodalanadi va ularning vaqt davomida qanday taqsimlanishi hisobga olinadi.

izlanishlar olib borilib, bunda xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, statistik tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilgan hamda “Yashil” iqtisodiyotning o‘shish ko‘rsatkichlari iqtisodiy rivojlanishning asosi ekanligini ko‘rsatishda qo‘llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Dunyo mamlakatlari urbanizatsiyalashuv jarayonida aholini energiya bilan ta‘minlanish uchun resurslardan oqilona foydalangan holda iqtisodiy samaradorlikka, atrof-muhitga zarar etkazmasdan farovonlikka erishish masalalari ko‘rib chiqmoqda. “Yashil” iqtisodiyotning global miqyosda o‘rganishda “Yashil” iqtisodiyot tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan davlatlar qatoriga Germaniya, Shvetsiya va Janubiy Koreya kiradi. Ushbu mamlakatlar qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalarni oshirib, iqtisodiy o‘shish va ekologik barqarorlikni birlashtirishga erishgan.

1-jadval.

**Global “Yashil” iqtisodiyot indeksining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlar tizimi[8]<sup>1</sup>**

Nomi	Turi	Salmog‘i, %	Ta'rifi
<b>Samaradorlik</b>			
<b>Bino va inshootlar</b>	Miqdor	20	Bino va inshootlarning LEED sertifikatiga egaligi
<b>Energetika</b>	Miqdor	20	Tiklanadigan energiyaning jami iste'moldagi ulushi
<b>Turizm</b>	Sifat	20	“Yashil” turizm bo‘yicha mamlakat reytingi
<b>Transport</b>	Miqdor	20	Avtomobillar chiqarayotgan CO <sub>2</sub> miqdori
<b>Resurs samaradorligi</b>	Miqdor	20	Chiqindilarni qayta ishlash darajasi
<b>Bozorlar va investitsiyalar</b>			
<b>Investitsion jozibadorlik</b>	Miqdor	25	Tiklanadigan energetika tarmog‘ining investitsion jozibadorligi
<b>“Yashil” innovatsiya</b>	Miqdor	25	“Yashil” innovatsiya bo‘yicha biznes muhit
<b>Korporativ barqarorlik</b>	Sifat	25	Uchta yirik kompaniyaning barqarorlik darajasiga o‘tishi
<b>“Yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash</b>	Sifat	25	Davlat tomonidan “Yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash siyosati

Ushbu jadval iqtisodiyotning ekologik barqarorligi va “Yashil” iqtisodiyotni rivojlanishi bo‘yicha ikkita asosiy kategoriya – Samaradorlik va Bozorlar va investitsiyalar asosida baholanadigan mezonlarni ko‘rsatadi. Bunda har bir mezonning miqdori va sifati umumiy baholashga ta’sir qiladi.

Samaradorlik bo‘yicha tahlil (har biri 20%) bo‘limi ekologik barqarorlikni saqlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish mezonlarini o‘z ichiga oladi. Ya’ni bino va inshootlarning LEED (Leadership in Energy and Environmental Design) sertifikati xalqaro ekologik qurilish standartlaridan biri bo‘lib, binolarning ekologik jihatdan samarali qurilishi va energiyaning tejash darajasini belgilaydi. Agar mamlakatda LEED sertifikati olgan binolar ko‘p bo‘lsa, bu ekologik inshootlar barpo etilayotganini anglatadi.

Avtomobillar chiqarayotgan CO<sub>2</sub> miqdori transport sektori global isish va ekologik muammolarga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi sohalaridan biri hisoblanib, ushbu miqdor qanchalik kam bo‘lsa, shuncha elektromobillar, ommaviy va ekologik toza transportdan ko‘proq foydalanilayotganligini bildiradi.

Chiqindilarni qayta ishlash darajasi mamlakatda chiqindilarni qayta ishlash tizimi qanchalik rivojlanganligini hamda yuqori qayta ishlash darajasi chiqindilarni atrof-muhitga zarar etkazishini kamaytiradi.

<sup>1</sup> <https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index/>

Bozorlar va investitsiyalar bo'yicha tahlil (har biri 25%) bo'limi “Yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha davlat va biznes sektorining sa'y-harakatlarini baholaydi.


“Yashil” moliyalashtirish qayta tiklanadigan energetika tarmog'ining investitsion jozibadorligi anglatadi. Agar qayta tiklanuvchi energiyaga sarmoya kiritishda qonunchilik, moliyaviy imtiyozlar, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lsa, bu mamlakatda “Yashil” iqtisodiyot rivojlanayotganidan dalolat beradi.

“Yashil” innovatsiya bo'yicha biznes muhit mamlakatning ekologik texnologiyalar, innovatsion echimlar (masalan, energiyani tejash texnologiyalari, chiqindisiz ishlab chiqarish) bo'yicha rivojlanish darajasiga bog'liq. Negaki ushbu soha bo'yicha “Yashil” innovatsiyalarning yaratilishi sahaning jadal rivojlanishiga olib keladi.

Davlat tomonidan “Yashil” investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash siyosati hukumat “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun subsidiyalar, soliq imtiyozlari va qonuniy rag'batlantirish choralari orqali investorlarni jalb qilishi hamda davlat ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlayotganlik sifatiga qarab baholanadi.

Umuman olganda biror mamlakat ushbu mezonlarning barchasida yuqori natijaga erishsa, u “Yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligiga ega davlat hisoblanadi. Aksincha, ushbu ko'rsatkichlar past bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti ekologiyaga zarar yetkazayotganidan darak beradi.

O'zbekistonda mustaqillik va islohotlarning o'tgan o'ttiz yili ichida Orolbo'yida atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmonchilik choralari tufayli iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishdi. Atrof-muhit bo'yicha amaldagi milliy rejalar hamda maqsadlar past uglerodli va “yashil” iqtisodiyotga o'tishning markaziy elementlari bo'lib qolmoqda. Ammo sug'orish va ichimlik suvi tanqisligi, ishonchli elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar hamon mavjud, bunga so'nggi paytlarda yuz bergan keng ko'lamlı elektr uzilishlari, misli ko'rilmagan qum va chang bo'ronlari dalil bo'la oladi. Odamlar, jamoalar, atrof-muhit va infratuzilmaga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ushbu muammolar O'zbekistonning “Yashil” kelajagini ta'minlash uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerakligini eslatib turadi[9].



1-rasm. “Yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash mezon<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif internet ma'lumotlaridan foydalangan tuzgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishi davomida energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi va atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish zarurati bu yo‘nalishda sezilarli islohotlarni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[2]gi Qarorida “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning maqsadli strategiyalarini belgilash, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, issiqxona gazlari emissiyasini nazorat qilish va kamaytirish, iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘sirini inobatga olgan holda chora-tadbirlar amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Ushbu sa’y-harakatlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish va atrof-mihit muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki “Yashil” iqtisodiyotning natijaviy samaradorlikka erishishi sohani istiqbolli rivojlanishiga va atrof-muhitni yaxshilanishiga undaydi.

Biz “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi rasmiy ravishda qabul qilinmaganligi sababli mavzuga oid ko‘plab adabiyotlarning tahlilidan kelib chiqib “Yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholashda 1-rasmdagi ko‘rsatkichlardan foydalanilgan holda barqaror rivojlanishni tashkil etish, tahlil qilish va kelgusi prognozlarini tuzish mumkin degan asosli to‘xtamga keldik.

Ushbu rasmdagi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari “Yashil iqtisodiyot”ning ijtimoiy yoki ekologik samaradorligini emas, balki aynan iqtisodiy samaradorligini baholash tahlilida muhim omillardan hisoblanadi. Shu bilan birga “Yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorlik formulasini ( $GE_{iqt.sam.}$ ) klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyasidan hamda yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, umumiy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi.

$$GE_{iqt.sam.} = \frac{R}{C}$$

Bu erda:  $GE_{iqt.sam.}$ - “Yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligi;

R- jami “Yashil” daromad;

C- “Yashil” daromad olish uchun sarflangan xarajatlar;

Mazkur formula “Yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholashning umumiy ifodasi bo‘lib, bir birlik sarflangan xarajat qancha miqdorda daromad olib kelganligini anglatadi. Shuningdek, ushbu formulaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat.

### 1. Energiyadan foydalanish iqtisodiy samaradorligi

$$E_{energiya} = \frac{E_{quyosh} + E_{shamol} + E_{suv}}{C}$$

Bu erda:  $E_{quyosh}$ - quyosh panellaridan olinadigan energiya;

$E_{shamol}$ - shamol elektr energiya stansiyadan olinadigan jami energiya;

$E_{suv}$ - Gidroelektr stansiyadan olinadigan jami energiya;

C- elektr energiya olish uchun sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi;

Bu formula yuqori qiymat energiyadan samarali foydalanish darajasini ko‘rsatib, Ch.Yungkun, Ch.Chia-Yon va H.Tsuifang kabi olimlarning “Exploration of sustainable development by applying green economy indicators”[4] nomli maqolasiga asoslanib tuzilgan.

### 2. Transportdan foydalanish iqtisodiy samaradorligi

O.Odilov, Sh.Xudoyorov va B.Abdiyevlar tomonidan yozilgan “Yo‘lovchi avtomobil transporti samaradorligi va sifatini tahlil qilish”[10] nomli maqolasida yo‘lovchi tashish samaradorligini tashish samaradorligi koeffitsienti bilan emas, balki baholash taklif etiladi. Jarayon yo‘lovchi tashish tizimi faoliyatining iqtisodiy samaradorligi koeffitsientiga ko‘ra, bu formula bo‘yicha hisoblanishi mumkin:

$$K_{e.ef} = 10 \times \frac{D-Z}{S_{yol} \times P}$$

Bu erda:

D - tizimning barcha tashuvchilari n-yildagi daromadlari, million so‘m.

Z - tizimning barcha tashuvchilari n-yildagi xarajatlar, million so‘m;

$S_{yol}$ - 10 yo‘lovchi/km xisobiy tan narx, so‘m;

P-yilda barcha tashuvchilarning yo‘lovchi aylanmasi, million yo‘lovchi / km

Olimlar ushbu formulada yo‘lovchi tashishni iqtisodiy samaradorligini baholashda foydalanilishini tushuntirishgan. Bizningcha, ham shunday. Ammo transportdan foydalanishning

iqtisodiy samaradorligini miqdor ko‘rsatkichlari orqali hisoblashning iloji yo‘q va bu samaradorlikni faqat sifat jihatdan baholash mumkin degan xulosaga keldik. Negaki, quruqlik va havo transporti tizimidagi xarajatlar, narx, foyda, daromad kabi ko‘rsatkichlar, infratuzilmasi hamda yuqoridagi baholash mezonlar tahlilidan kelib chiqib, transportdan foydalanishning umumiy samaradorligini to‘liq aks ettira olmadi.

### 3. “Yashil” texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy samaradorligi

$$E_{\text{yashil tex.sam.}} = \frac{F}{T_{\text{jami}} - T_{\text{yashil}}} - \frac{F}{T_{\text{jami}}}$$

Bu erda:

F- jami oddiy va “Yashil” texnologiyalar sarflagan energiyaning puldagi ifodasi;

$T_{\text{jami}}$ - jami oddiy “Yashil” texnologiyalar soni;

$T_{\text{yashil}}$ -jami “Yashil” texnologiyalar soni;

Biz mazkur formulani “Yashil” texnologiyalar – “Yashil” iqtisodiyotning bo‘g‘ini sifatida”[11] nomli maqolamiz asosida tuzilgan. Agar hisoblashdan chiqqan qiymat qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakatda “Yashil” texnologiyalar bilan ta‘minlanish darajasi va foydalanish samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Umuman olganda “Yashil” iqtisodiyotni iqtisodiy samaradorligini babolash murakkab jarayon bo‘lib, ushbu sohaning iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir etuvchi ko‘plab omillar mavjud. Biz ko‘plab adabiyotlarni o‘rganish asosida asosiy deb hisoblagan omillarimiz orqali baholashga urindik. Shuningdek O‘zbekiston “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishida qator yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonni tezlashtirish uchun quyidagi muhim yo‘nalishlarni kuchaytirish lozim:

- Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish;
- Atrof-muhit monitoringini kuchaytirish;
- Xalqaro tajribalarni o‘rganish va integratsiya qilish.

#### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini amalga oshirishda “yashil” iqtisodiyotni baholash ma‘lum natijalarga erishishni aniq namoyon qiladi. Ammo ushbu jarayonning to‘liq samaradorligini ta‘minlash uchun miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, tizimli yondashuv va strategik rejalashtirish talab etiladi. Bu orqali nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagi asosli takliflar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, “Yashil” energiya manbalarini rivojlantirishni jadallashtirish, jumladan, quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish;

Ikkinchidan, resurslardan oqilona foydalanish: suv, er va boshqa tabiiy resurslarni tejash texnologiyalarini keng joriy etish, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb etish hamda ushbu “Yashil” texnologiyalar uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratish va imtiyozlar yaratish;

Uchinchidan, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish: energiyaning tejash va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq qilish, qayta ishlash korxonalarini ko‘paytirish va aholining chiqindilarni saralash bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirish;

To‘rtinchidan, monitoring va baholash tizimini kuchaytirish: ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlar asosida muntazam monitoring tizimini kuchaytirish hamda ko‘rsatkichlarni barqaror o‘ishini ta‘minlashda strategik maqsadlarni belgilash;

Beshinchidan, qonunchilikni takomillashtirish orqali “Yashil” iqtisodiyotga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va amaliyotga yo‘naltirilgan yangi qonunlarni qabul qilish;

Oltinchidan, “Yashil” iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun maxsus fondlar tashkil etish va innovatsion tadqiqotlarni moliyalashtirish va ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash;

Yettinchidan, Korxonalarda ekologik sertifikatlash tizimini joriy etish;

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.**

- [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>

- [2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son <https://lex.uz/docs/-4539502>
- [3]. Natalia Vukovic, Vladimir Pobedinsky, Sergey Mityagin, Andrei Drozhzhin and Zhanna Mingaleva “A Study on Green Economy Indicators and Modeling: Russian Context” <https://www.mdpi.com/2071-1050/11/17/4629>
- [4]. Yungkun Chen, Chia-Yon Chen & Tsuifang Hsieh “Exploration of sustainable development by applying green economy indicators” <https://link.springer.com/article/10.1007/s10661-011-1875-3>
- [5]. Pen-Chi Chiang, Hwong-wen Ma, Lihchi Wen & Chun-hsu Lin “Economic and Environmental Assessment in Green Economy” [http://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-99-9676-6\\_10](http://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-99-9676-6_10) <https://link.springer.com/book/10.1007/978-981-99-9676-6>
- [6]. Albert Merino-Saum, Marta Giulia Baldi, Ian Gunderson va Bruno Oberle “Articulating natural resources and sustainable development goals through green economy indicators: A systematic analysis” <https://doi.org/10.1016/j.resconrec.2018.07.007>
- [7]. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmamatov Sh.A., Butayev M.T., “Yashil iqtisodiyot” darslik.-T.: “Universitet”, 2020. 296 bet.
- [8]. <https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index/>
- [9]. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099905206302223031/pdf/P1708700b978730eb09a17023c938c721bc.pdf>
- [10]. Adilov O.K., Xudoyorov Sh.T. va Abdiev B. “Yo‘lovchi avtomobil transporti samaradorligi va sifatini tahlil qilish” <https://cyberleninka.ru/article/n/yolovchi-avtomobil-transporti-samaradorligi-va-sifatini-tahlil-qilish>
- [11]. Boboqulov S.B., Qurbonov T.N. va Shodiyev F.Q. “Yashil” texnologiyalar – “Yashil” iqtisodiyotning bo‘g‘ini sifatida” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2025-yil, yanvar. № 1-son.
- [12]. <https://mineconomy.gov.uz/uz/info/4479>
- [13]. [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=green+economy+indicators&btnG=](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=green+economy+indicators&btnG=)
- [14]. [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=yashil+iqtisodiyot+ko%27rsatkichlari&btnG=](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=yashil+iqtisodiyot+ko%27rsatkichlari&btnG=)
- [15]. <https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-tarmog-i-iqtisodiy-samaradorligini-baholash-usullari-va-ularni-takomillashtirish>
- [16]. <file:///C:/Users/User/Downloads/100-106.pdf>

<p><b>Т.Курбанов</b></p> <p><b>Анализ оценки экономической эффективности «Зеленой экономики»</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье, подчеркивая важность перехода к «зеленой» экономике, рассматриваются методы оценки «зеленой экономики» через показатели экономической эффективности, а также даются указания по анализу уровня устойчивого развития зеленой экономики Узбекистана и будущих возможностей по этому критерию. По результатам разработаны научно обоснованные выводы и предложения по повышению экономической эффективности зеленой экономики страны.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> зеленая экономика, окружающая среда, экономическая эффективность, оценка, энергетика, солнечная энергетика, ветроэнергетика, отрасли промышленности, транспорт, переработка отходов, зеленые инновации, зеленые технологии.</p>	<p><b>T.Kurbanov</b></p> <p><b>Analysis of economic effectiveness assessment of "Green economy"</b></p> <p><b>Abstract.</b> In this article, while highlighting the importance of the transition to the "green" economy, the methods of evaluating the "green economy" through economic efficiency indicators are considered, and instructions are given to analyze the level of sustainable development of the green economy of Uzbekistan and future opportunities according to this criterion. Based on the results, scientifically based conclusions and proposals were developed to increase the economic efficiency of the country's green economy.</p> <p><b>Keywords:</b> green economy, environment, economic efficiency, evaluation, energy, solar energy, wind energy, industries, transport, waste treatment, green innovation, green technology.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.